


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **34 430,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **3,7 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi **12 057,7** mlrd. so'mni, o'zgarish sur'ati (**118,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **22 372,8** mlrd. so'mni (**97,2 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **763,8** mlrd. so'mni (**63,7 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, foizda



## O'sish (o'zgarish) sur'ati, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

## UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **34 430,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **3,7** % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha tumanida chakana savdo aylanmasining o'sishi kuzatildi. Yirik biznes tarkibida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.




## ENG YUQORI ULUSH

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **16,0** % ulush bilan **5 499,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mirzo Ulug'bek tumani **6,3%** ulush bilan **2 166,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Toshkent shahri      Uchtepa      Bektemir      Yunusobod      Mirzo Ulug'bek      Mirobod      Shayxontohur      Olmazor      Sirg'ali      Yakkasaroy      Yashnobod      Chilonzor

Yirik korxonalar      Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




2019-yil yanvar-oktabr  
2020-yil yanvar-oktabr

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi umumiy savdo hajmining **65,0** foizini tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining asosiy ulushi Bektemir (94,1 foiz), Uchtepa (91,8 foiz), Mirzo Ulug'bek (76,0%), Shayxontohur (73,8%) Olmazor (67,3%), va Yashnobod (63,0 %) tumanlarida kuzatildi.



2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Yunusobod (123.9 %), Shayxontohur (101,9%), Olmazor (101,7 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,  
foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>34 430,5</b>	<b>103,7</b>	<b>12 057,7</b>	<b>118,5</b>	<b>22 372,8</b>	<b>97,2</b>
<b>Uchtepa</b>	3 773,4	100,9	310,2	90,9	3 463,2	101,9
<b>Bektemir</b>	2 359,9	101,1	138,3	117,4	2 221,6	100,3
<b>Yunusobod</b>	4 442,7	123,9	2 162,9	387,6	2 279,8	75,3
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	2 166,8	100,4	519,0	96,1	1 647,9	101,8
<b>Mirobod</b>	2 184,7	101,1	1 065,9	133,7	1 118,8	82,0
<b>Shayxontohur</b>	3 601,8	101,9	942,2	84,8	2 659,6	109,7
<b>Olmazor</b>	2 405,2	101,7	787,5	86,8	1 617,7	110,9
<b>Sirg'ali</b>	2 473,3	101,5	1 075,7	117,4	1 397,6	91,9
<b>Yakkasaroy</b>	3 211,1	101,1	1 404,4	106,5	1 806,7	97,3
<b>Yashnobod</b>	2 312,0	101,6	855,2	140,5	1 456,8	87,4
<b>Chilonzor</b>	5 499,6	101,2	2 796,6	94,6	2 703,0	109,1

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana tovar ayirboshlash tarkibida yirik korxonalarning tovar ayirboshlash hajmi **18,5** foizga o'sdi va **12 057,7** mlrd so'mga yetdi, bu uning umumiy hajmining **35,0%** ni tashkil etadi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **22 372,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,8%** ga kamaydi. Chakana tovar ayirboshlashda ushbu sohaning shahardagi ulushi **65,0%** ga yetdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa hududlariga nisbatan eng katta ulushini Bektemir (94,1%), Uchtepa (91,8%), Mirzo Ulug'bek (76,0%), Shayxontoxur (73,8%), Olmazor (67,3%) va Yashnobod (63,0%) tumanlari tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar ayirboshlash ulushi umumiy sotishning 35,0% ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Chilonzor (50,9%), Mirobod (48,8%), Yunusobod (48,7%) va Yakkasaroy (43,7%) tumanlarida kuzatildi.





## TOSHKENT SHAHRI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATI


Toshkent shahrida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yil yanvar-oktabr oylarida o'rtacha **13 176,1** ming so'mni tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 foizga kamaydi).

Ushbu ko'rsatkich boshqa hududlarga nisbatan Bektemir (67 043,1 ming so'm), Yakkasaroy (26 781,4 ming so'm) va Chilonzor (21 720,3 ming so'm) tumanlarida ko'proq qayd etildi.




District	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Toshkent sh.	13 176,1	100,5
Uchtepa	13 756,5	98,8
Bektemir	67 043,1	98,0
Yunusobod	12 881,0	120,1
Mirzo Ulug'bek	7 766,5	98,0
Mirobod	15 616,0	98,8
Shayxontohur	10 485,7	100,6
Olmazor	6 500,4	99,4
Sirg'ali	12 106,2	92,3
Yakkasaroy	26 781,4	100,1
Yashnobod	9 288,9	96,0
Chilonzor	21 720,3	98,2

Asosiy tarkib, foizda




Jismoniy shaxslar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, uyushmagan savdo hajmi 2020-yil yanvar-oktabr oylarida **763,8** mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **36,3** % ga kamaydi. Jumladan, dehqon bozorlarida savdo aylanmasi **716,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **65,3** ) chorvachilik bozoridagi savdo aylanmasi **47,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **46,4** %) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI**

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **716,1** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **47,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



\* Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo‘shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>763,8</b>	<b>63,7</b>	<b>716,1</b>	<b>65,3</b>	<b>47,67</b>	<b>46,4</b>
<i>tumanlar:</i>						
<b>Uchtepa</b>	44,5	37,8	44,5	37,8	-	-
<b>Bektemir</b>	204,7	116,0	157,0	65,3	47,62	46,4
<b>Yunusobod</b>	91,5	65,7	91,5	65,7	-	-
<b>Mirzo Ulug‘bek</b>	64,7	51,8	64,7	51,8	-	-
<b>Mirobod</b>	15,6	22,9	15,6	22,9	-	-
<b>Shayxontohur</b>	66,7	69,0	66,7	69,0	-	-
<b>Olmazor</b>	16,0	17,3	15,9	65,3	0,05	46,4
<b>Sirg‘ali</b>	29,3	46,1	29,3	46,1	-	-
<b>Yakkasaroy</b>	24,5	27,6	24,5	27,6	-	-
<b>Yashnobod</b>	100,5	85,8	100,5	85,8	-	-
<b>Chilonzor</b>	105,9	92,9	105,9	92,9	-	-

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



10,7  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



339,1  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



27,7  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

54,7  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



51,6  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

9,2  
mlrd. so'm



**Tuxum**

103,0  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

0,7  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-xashaklar**

9,7  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**

2020-yil yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlaridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (shaxsiy yordamchi tomorqalarida yetishtirilgan) sotish bilan shug'ullanuvchi shaxslar bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo turining aylanmasi **716,1** milliard so'mni tashkil etdi.

10,5  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

99,2  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**



2020-yil yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida parrandachilik va chorva mollarini sotish bilan shug'ullanadiganlar (shaxsiy fermalarda saqlanadigan) bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo aylanmasi **47 670,5** million so'mni tashkil etdi. Turli yoshdagi qoramollarni sotish **32 961,6** mln. so'mga, qo'y va echkilar - **12 079,8** mln. so'mga, otlar - **2 580,2** mln. so'mga, qushlar - **49,0** mln so'mga yetdi.






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATI**

2020-yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **5,1 %** ni tashkil etib, **1 742,1 mlrd so'mni** tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,5 %** ga kamaydi, ularning **77,0 foizi** kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.


Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'ati, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>1 742,1</b>	<b>91,5</b>	<b>400,6</b>	<b>94,1</b>	<b>1 341,5</b>	<b>90,7</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	74,8	87,7	4,5	58,4	70,3	90,7
Bektemir	39,8	101,7	6,3	89,3	33,6	104,5
Yunusobod	213,2	59,2	47,9	40,6	165,3	68,2
Mirzo Ulug'bek	190,9	92,6	13,1	106,7	177,8	91,7
Mirobod	158,7	89,8	21,3	137,6	137,4	85,2
Shayxontohur	287,4	132,1	122,7	173,3	164,7	112,2
Olmazor	134,2	105,7	9,3	3 205,3	124,9	98,6
Sirg'ali	87,7	44,0	44,7	31,7	42,9	74,2
Yakkasaroy	185,1	97,8	21,4	78,4	163,7	101,1
Yashnobod	97,8	78,3	2,6	28,6	95,2	82,1
Chilonzor	272,6	152,8	106,9	641,4	165,6	102,4


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo hajmi **47 933,7** mlrd so'mga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish **7,4 %** ni tashkil etdi. Kichik biznesning ulgurji savdo aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **32 327,6** mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,1 %** ga kamaydi. Toshkent shahridagi ulgurji savdo aylanmasida ushbu sektorning ulushi **67,4%** ni tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATI**

O‘tgan yilga nisbatan yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasida eng yuqori o‘shish sur‘ati Yashnobod (174,8%), Chilonzor (123,4%) va Yunusobod (108,4 %) tumanlarida qayd etildi.


**Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘ati, foizda**




	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	47 933,7	107,4	15 606,1	198,1	32 327,6	87,9
Uchtepa	2 627,1	90,0	230,0	176,4	2 397,1	86,0
Bektemir	873,1	93,8	102,4	278,4	770,7	86,2
Yunusobod	3 893,2	108,4	883,8	179,4	3 009,4	97,1
Mirzo Ulug'bek	4 825,8	97,4	1 211,6	124,0	3 614,2	90,9
Mirobod	5 010,3	101,6	1 007,5	210,0	4 002,8	89,9
Shayxontohur	2 836,4	90,9	437,7	351,7	2 398,7	80,0
Olmazor	6 486,5	104,4	2 459,5	143,7	4 027,0	89,5
Sirg'ali	2 712,6	77,0	663,0	68,0	2 049,6	80,4
Yakkasaroy	4 838,9	95,2	1 655,6	130,7	3 183,3	83,5
Yashnobod	7 638,3	174,8	4 449,2	782,8	3 189,1	83,9
Chilonzor	6 191,5	123,4	2 505,8	224,3	3 685,7	94,5



# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Toshkent shahri      Uchtepa      Bektemir      Yunusobod      Mirzo Ulug`bek      Mirobod      Shayxontohur      Olmazor      Sirg`ali      Yakkasaroy      Yashnobod      Chilonzor



2019-yil  
yanvar-  
oktabr  
2020-yil  
yanvar-  
oktabr

Hisobot davrida ulgurji savdo aylanmasi tarkibida kichik biznes aylanmasining ulushi umumiy sotishning **67,4 %** ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Uchtepa (91,2%), Bektemir (88,3%), Shayxontohur (84,6%), Mirobod 79,9 %) va Yunusobod (77,3 %) tumanlarida kuzatildi.

